

ABDULLA AVLONIY – MA'RIFATPARVAR, PEDAGOG VA ADIB

Shavkatova Shaxnoza Po'lot qizi
Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek ma'rifatparvarligi tarixida muhim o'rin egallagan Abdulla Avloniy hayoti, uning pedagogik qarashlari, adabiy faoliyati hamda madaniy-ma'rifiy islohotlardagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, uning asarlari tahlil qilinib, bugungi ta'lim va tarbiya tizimi uchun ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Jadidchilik, ma'rifat, ta'lim, adabiyot, pedagogika, axloq, teatr, tarix, milliy ruh, drama.*

Kirish: U 1878-yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida kosib oilasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon mayda hunarmandchilik, to'quvchilik bilan shug'ullangan, Yarmarka bozorda bo'z va chit bilan savdo qilgan.

Abdulla yetti yoshdan O'qchidagi eski maktabda ta'lim olgan. U tarjimai holida bu haqda shunday yozgan: "12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda "Tarjumon" gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim".

XX asr boshlarida o'zbek xalqining milliy uyg'onish harakati kuchaygan bir davrda Abdulla Avloniy ana shu harakatning yetakchi namoyandalaridan biri sifatida tarixda yorqin iz qoldirdi. Uning butun umr faoliyati – xalqni o'qitish, ogohlikka chorlash, milliy tafakkurni yuksaltirishga qaratilgan bo'lib, bu jihatlari bugungi kun uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Abdulla Avloniy 1878 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. U ilk ta'limni eski maktabda olsa-da, keyinchalik yangi usuldagi maktab ochish, ilm-fan asosida o'qitishni yo'lga qo'yish g'oyasi bilan yashadi. U jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi bo'lib, bu harakat orqali xalqni johillikdan chiqarish, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga harakat qildi.

Avloniy 1904 yilda Toshkentda yangi usuldagi maktab ochgan. 1909 yilda esa "Jamiyati xayriya" jamiyatini tashkil etib, moddiy jihatdan qiynalayotgan o'quvchilarga yordam ko'rsatdi. Bu faoliyat uni nafaqat pedagog, balki ijtimoiy islohotchi sifatida ham tanitdi.

Avloniy ta'lim-tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosi deb bildi. U "Turkiy Guliston yoxud axloq" (1913) nomli asarida axloqiy tarbiyaning asoslarini yoritdi. Shuningdek, "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" kabi darsliklarida zamonaviy fanlar:

matematika, tabiiyot, tarix, adabiyot kabi yo‘nalishlarni maktab dasturiga kiritishni taklif qildi.

Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham dolzarb: har bir bola bilim olish huquqiga ega, ta‘lim tarbiya bilan uyg‘un bo‘lishi kerak, deb hisoblagan. Bu g‘oyalar bugungi zamonaviy pedagogik tamoyillarga juda yaqin.

Avloniy nafaqat muallim, balki adib ham edi. U she‘r, doston, hikoya hamda dramatik asarlar orqali xalqni ongli yashashga da‘vat etdi. “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” nomli to‘plamida milliy ruhni uyg‘otuvchi she‘rlar jamlangan.

1913 yilda tashkil etgan “Turon” teatr truppasi orqali esa u drama san‘ati orqali xalq ongini oshirishga urindi. Uning "Advokatlik osonmi?", "To‘y", "Ikki muhabbat" kabi asarlarida jamiyatdagi illatlar fosh etilib, ijtimoiy adolat targ‘ib qilinadi.

Abdulla Avloniy shoir sifatida ko‘plab she‘rlar bitgan. Uning she‘rlari xoh eski urf odatlarga qarshi qaratilgan bo‘ladimi, xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo‘ladimi, hamma-hammasida inson, uning ahloqiy go‘zalligi va ma‘naviy boyligi kuylanadi. Jumladan, **“O‘z mamlakatimizda”** she‘rida maishat uchun pul boyliklarni mo‘l-ko‘l isrof etgan, ammo bola tarbiyasi uchun sariq chaqani ravo ko‘rmagan xasislarni *“Ilm uchun pulni ko‘zlari qiymas”*, deb qoralaydi. Yoki **“Maktab”** she‘rida:

Maktab misni tilla qilur,

Maktab sizni mullo qilur,

deyish orqali shoir maktabni inson uchun zulm, nohaqlik, adolatsizlikdan xalos etuvchi najot yo‘li ekanligini aytadi. Ayniqsa, uning **“Adabiyot”**(1915) kitobi bu jihatdan alohida ajralib turadi.

Abdulla Avloniy o‘zbek xalqining madaniy-ma‘naviy uyg‘onishida beqiyos xizmat qilgan. Uning o‘gitlari, pedagogik qarashlari va adabiy merosi bugungi ta‘lim tizimi, yoshlar tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda Avloniy nomidagi maktablar, ilmiy markazlar va uy-muzey faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, uning asarlari o‘rganilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan solishtirilmoqda.

Xulosa. Abdulla Avloniy – ilm, axloq va ma‘rifat yo‘lida butun umrini bag‘ishlagan fidoyi ziyoli edi. Uning asarlari nafaqat o‘z zamon, balki bugungi kun yoshlarini ham tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Har bir pedagog, har bir yosh uning ijodidan ibrat olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avloniy A. *Turkiy Guliston yoxud axloq*. – Toshkent: 1913.
2. Ziyouz.uz – “Abdulla Avloniy hayoti va ijodi”. <https://ziyouz.uz>
3. FarDU Ilmiy xabarlar jurnali – Odina Abobakirova. “Abdulla Avloniy bolalar adabiyotida”.
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Bosh tahririyati.